

**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi**

**60410100 – Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo‘jaligida) bakalavriat ta’lim  
yo‘nalishining malaka talablari**

**Toshkent**



## **ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:**

- Toshkent davlat agrar universiteti;

## **TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy va o'rta maxsus, professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021 yil «24» 08 dagi 4 - sonli yig'ilishida ma'qullangan. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021 yil «25» 08 dagi 365 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

## **JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r	bet
1. 60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida) bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi .....	4
1.1. Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1. 60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi .....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2. 60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi .....	4
1.2.1. 60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari .....	4
1.2.2. 60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari .....	4
1.2.3. 60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4. 60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2. 60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar .....	6
2.1. Umumiy kompetensiyalar.....	6
2.2. Kasbiy kompetensiyalar.....	6
Bibliografik ma'lumotlar.....	8
Kelishuv varag'i .....	9

## **1. 60410100- Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida) bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi**

**60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida)** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi.**

#### **1.1.1. 60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi **60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida)** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

- mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;
- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;
- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;
- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. 60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

#### **1.2.1. 60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:**

**60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida)** – “Biznes va boshqaruv” ta'lim sohasiga oid bo'lib, u davlat, aksionerlik va xususiy kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalarining barcha yo'nalishlari, iqtisodiy-huquqiy va tashkiliy asoslari, faoliyat tamoyillari, likvidligi va to'lov qobiliyatini ta'minlash bilan bog'liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

#### **1.2.2. 60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

- davlat va nodavlat tashkilot, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar;
- agrosanoat majmui korxonalarini buxgalteriya hisobi va ichki nazorat bo'limlari, fermer xo'jaliklari, agrofirma va agroklasterlar, agrar sohadagi aksiyadorlik jamiyatlari va mas'uliyati cheklangan jamiyatlar, lizing kompaniyalari va boshqalar;
- auditorlik tashkilotlari, xo'jalik yurituvchi subyektlarning ichki audit xizmati, auditorlar ishining sifatini nazorat qilish bo'linmalari va boshqalar;
- qishloq xo'jalik korxonalarini xarajatlari va moliyaviy natijalari, moliyaviy va axborot oqimlari, ishlab chiqarish jarayonlari;

- ilmiy tadqiqot jarayonlari.

60410100 – *Buxgalteriya hisbi va audit (qishloq xo'jaligida)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi. Bakalavriatning kasb ta'limi yo'nalishlari bundan mustasno.

### **1.2.3. 60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- moliyaviy-iqtisodiy;
- hisob, nazorat va tahlil;
- tashkiliy-boshqaruv;
- ilmiy tadqiqot;
- konsalting xizmati faoliyati.

### **1.2.4. 60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.**

60410100-*Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

#### **Moliyaviy-iqtisodiy faoliyatida:**

- agrar korxonalar, xususan, fermer xo'jaliklari moliyasini tashkil etish va boshqarishga doir O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda qonunosti hujjatlarini bilishi hamda ulardan o'z faoliyatida foydalana olish;

- investitsion loyihalarning muqobil variantlarini ishlab chiqish, maqbulini asoslay olish;
- agrar soha korxonalarida reja va budjetlarning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarini hisob-kitob qilish uchun zarur dastlabki ma'lumotlarni tayyorlash;
- operatsion va moliyaviy budjetlarni ishlab chiqish, budjetlashtirish tizimini joriy etish;
- agrar sektor subyektlari faoliyatining samaradorligini baholashda moliyaviy ko'rsatkichlarni hisoblash usullarini qo'llash;
- agrar sektor subyektlarida auditni tashkil etish va o'tkazish;
- agrar sektor subyektlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va uni rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish.

#### **Hisob, nazorat va tahlil faoliyatida:**

- kasbiy faoliyat sohasi bo'yicha qo'yilgan masalalarni hal qilish uchun zarur ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish usullarini bilish;

- buxgalteriya hisobini yuritish;
- iqtisodiy ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish;
- mulkchilik shaklidan qat'iy nazar korxonalar faoliyatini xalqaro amaliyot mezonlari, me'yorlari va talablari asosida tahlil qilish;
- hisob-kitoblarni tahlil qilish va o'z yechimini asoslash, moliyaviy va iqtisodiy ma'lumotlarga qayta ishlov berishning turli vositalaridan foydalanish;
- moliyaviy-iqtisodiy jarayonlarning turkumlanishiga asoslangan standart nazariy va ekonometrik modellarni yaratish, ulardan olingan natijalarni tahlil qilish va izohlash;
- xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etish;
- budjetlashtirish va prognozlash uchun buxgalteriya, moliyaviy va boshqa axborotlarni tahlil qilish va sharhlash;
- moliyaviy ko'rsatkichlarning o'zgarish dinamikasi va tendentsiyalarini tahlil qilish;
- auditorlik faoliyati bo'yicha xalqaro tajribalarni tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- ilmiy hamda hisob, tahlil va nazorat faoliyati muammolarini chuqur tahlil qilish, masalalarni qo'yish va asoslash;

- moliyaviy va statistik hisobotlarni tuzish hamda ularni sharhlash;
- taqdim etilgan loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash va ularning moliyaviy-iqtisodiy natijalarini tahlil qilish;
- tahliliy masalalarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan va texnik vositalardan foydalanish.

**Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

- mehnatga haq to'lash va rag'batlantirishni tashkil etish hamda tartibga solish;
- buxgalterlik va auditorlik faoliyatlarini tashkil qilish hamda boshqarish jarayonlarini rejalashtirish, yuritish, tahlil qilish va optimallashtirish, buxgalterlar va auditorlar jamoasini boshqarish;
- biznes-jarayonlarini boshqarish;
- boshqaruv qarorlarini tayyorlash va qabul qilish;
- ish rejasi tuzish, bajarilishini nazorat qilish va bajarilgan ishlar natijalarini baholash.

**Ilmiy tadqiqot faoliyatida:**

- ilmiy tadqiqotlarning nazariy va metodologik asoslarini bilish, tadqiqot obyekti, predmeti va metodlarini shakllantirish to'g'risida tushunchaga ega bo'lish;
- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- ta'lim yo'nalishidagi fanlarga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el olimlarining yutuqlarini o'rganish;
- ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, sohaga oid ilmiy adabiyotlar ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
- mavzuga oid ma'lumotlarni jamlash, qayta ishlash va ilmiy axborotlarni tizimli tahlil qilish;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarini amaliyotga tatbiq etish.

**Konsalting xizmati faoliyatida:**

- buxgalteriya hisobi va auditorlik xizmatlari bozori rivojlanishining tahliliy sharhlarini ishlab chiqish;
- buxgalteriya hisobi, moliya va soliqqa tortish sohasida konsalting xizmatlarini ko'rsatish.

## **2. 60410100-Buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

### **2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

### **2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo'llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- xo'jalik subyektlarida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va auditorlik faoliyatini

tashkil etish va amalga oshirishni bilishi;

- buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit sohalariga tegishli mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlarini, maxsus adabiyotlarni va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o'rgana olishi;

- mavzu bo'yicha iqtisodiy axborotlarni yig'ish, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- internet tarmog'idan eng yangi ilmiy-texnik yutuklar haqida ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga qo'llash jarayonlarida qatnashish malakasiga ega bo'lish;

- buxgalteriya hisobi va auditning mohiyatini o'rganish, konsepsiyalar, tamoyillar va maqsadlarni ishlab chiqish va tatbiq qilish malakasiga ega bo'lish;

- daromad va xarajatlar shakllanishi, buxgalteriya hisobining milliy standartlari, xo'jadik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- iqtisodiy tahlil usullari, asosiy vositalardan foydalanishning samaradorligi va xo'jalik yurituvchi subyekt rentabelligi, xo'jalik yurituvchi subyekt va tashkilotlarining moliyaviy holatini tahlil qilish malakasiga ega bo'lish;

- auditning obyekti, sifati va sohaları hamda audit o'tkazishni tashkil etishni bilish;

- audit standartlarini, auditni tartibga solishning normativ-huquqiy hujjatlarini bilish;

- xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobini tashkil etish malakasiga ega bo'lish;

- ichki xo'jalik nazoratini o'rnatishda konsalting xizmatlarni ko'rsatish va maslahatlar berish ko'nikmasiga ega bo'lish;

- xo'jalik yurituvchi subyektlarni zaruriy uslubiy materiallar bilan ta'minlash malakasiga ega bo'lishi;

- xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya xizmati ishini rejalashtirish va tashkil etishni bilish;

- ichki audit xizmati ishini rejalashtirishni bilish;

- ichki audit xizmati ishini amalga oshirishni bilish;

- tashqi auditorlik tekshiruvlarini tashkil qilish va o'tkazish malakasiga ega bo'lish;

- buxgalteriya hisobi va auditda axborot texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chikarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish ko'nikmasiga ega bo'lish;

- xo'jalik yurituvchi subyektlarda ishlab chikarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etish malakasiga ega bo'lish;

- samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishni bilish;

- ish rejasini tuzish va bu ishni nazorat qilish, ishni bajarish uchun zarur bo'lgan resurslarni rejalashtirish, o'z ishining natijalarini baholash va nazorat qilish tizimi talablariga mosligini monitoring qilish ko'nikmasiga ega bo'lish.

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### **Tayanch so'zlar:**

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv davri, agrosanoat majmui, fermer xo'jaliklari, agroklastlar, moliya, investitsion loyiha, operatsion va moliyaviy budjetlar, budjetlashtirish, faoliyat samaradorligi, buxgalteriya hisobi, audit, ichki audit, tahlil, ma'lumotlarni yig'ish, moliyaviy hisob, moliyaviy hisobot, statistik hisobot, boshqaruv hisobi, ichki audit xizmati, buxgalteriya hisobi xizmati, konsalting xizmatlari, buxgalteriya hisobi milliy standartlari, auditning xalqaro standartlari, auditorlik tekshiruvi, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, moliyaviy-iqtisodiy faoliyat, hisob, nazorat va tahlil faoliyati, tashkiliy-boshqaruv jarayoni, ilmiy tadqiqot, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.



**KELISHUV VARAG'I**

**ISHLAB CHIQLDI:**

**Toshkent davlat agrar universiteti**

Rektor  **B. Sulaymonov**

2021 yil « 19 » 08



**KELISHILDI:**

**O'zbekiston Respublikasi  
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish  
tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq  
etish markazi**

Direktor v.b. 

**M. Esonov**

2021 yil « 24 » 08

M.O'.

**O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi  
vazirining iqtisod, innovatsion rivojlanish va  
investitsiyalar masalalari bo'yicha  
maslahatchisi**

 **A. Shukurov**

2021 yil « 20 » 08

M.O'.



**Andijon qishloq xo'jaligi va  
agrotexnologiyalar instituti**

Rektori 

**K. Komilov**

2021 yil « 19 » 08

M.O'.



**Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohasi  
iqtisodiyoti ilmiy-tadqiqot instituti**

Direktor  **T. Farmonov**

2021 yil « 19 » 08

M.O'.

